

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

O.Shukurov	
Neym neologizmlar xususida	244
G'.Abduvaxobov	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiyasi.....	250
N.Maxmudova	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatilishi.....	257
H.Davlatova	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
V.Abdurahmonov	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantik tasnifi.....	267
F.Temirova	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil	271
A.Mirzaev	
Ko'p tillilik va uning yangi tilni o'rganishga ta'siri	276

PEDAGOGIKA

B.Khodjaev, B.Baydjanov	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

ILMIY AXBOROT

M.Abdukamolova	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi	288
P.Ro'ziboeva	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xshash va farqli jihatlari	292
Sh.Uralova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxona anjomlari nomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

FANIMIZ FIDOYILARI

Ilmga baxshida umr	302
Sermaksimal ilmiy ijod	303
Bibliografiya	305

BADIY DISKURS VA DISKURSIV TAHLIL

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ДИСКУРС И ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ

ARTISTIC DISCOURSE AND DISCOURSE ANALYSIS

Temirova Feruzabonu Temur qizi¹¹Temirova Feruzabonu Temur qizi

– I.Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali. “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi.

Аннотация

Diskurs – matndan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham tilga xos jarayondan, hamda shu jarayonning natijasi bo‘lmish matndan iborat bo‘ladi. Diskurs so‘zi zamirida nutqning barcha kognitiv-kommunikativ funktsiyalarini tushunish yotadi. Bundan ko‘rinib turibdiki diskurs ham jarayon, ham matndir. Matnning turg‘un, tayyor mahsulot, diskursning esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin qilinishi ularning keskin farqlanishiga sabab bo‘ladi. Lingvistik adabiyotlarda “diskurs” terminining qat‘iy bir ma‘nosi yo‘q, u ifodalaydigan hodisalar diapazoni juda keng, ya‘ni “matnning qismi” dan yaxlit “nutq”gacha bo‘lgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Аннотация

Дискурс - более широкое понятие, чем текст, и состоит как из лингвистического процесса, так и из текста, являющегося результатом этого процесса. В основе слова «дискурс» лежит понимание всех когнитивно-коммуникативных функций речи. Понятно, что дискурс - это и процесс, и текст. Интерпретация текста как стабильного, законченного продукта и дискурса как непрерывного процесса вербальной коммуникации делает их очень разными. В лингвистической литературе термин «дискурс» не имеет определенного значения, он используется для описания широкого спектра событий, от «части текста» до всей «речи».

Abstract

Discourse is a broader concept than text, and consists of both the linguistic process and the text resulting from this process. The word "discourse" is based on the understanding of all cognitive and communicative functions of speech. It is clear that discourse is both a process and a text. The interpretation of the text as a stable, complete product and discourse as a continuous process of verbal communication makes them very different. In linguistic literature, the term "discourse" has no definite meaning, it is used to describe a wide range of events, from "part of the text" to the entire "speech".

Kalit so‘zlar: diskurs, matn, diskursiv tahlil, kommunikatsiya, muloqot jarayoni, monologik jumla, kognitiv tilshunoslik, prozaik strofa, termin, murakkab sintaktik butunlik, matn komponenti, regist.

Ключевые слова: дискурс, текст, дискурсивный анализ, коммуникация, монолог, когнитивная лингвистика, прозаическая строфа, термин, сложная синтаксическая целостность, компонент текста, регистр.

Key words: discourse, text, discourse analysis, communication, monologue, cognitive linguistics, prosaic stanza, term, complex syntactic integrity, text component, register.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning ko‘pchiligida “diskurs” termini bot-bot qo‘llaniladi. V.Xegay haqli ravishda ta‘kidlaganidek, bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, matn lingvistikasining o‘zida ham yagona, ko‘pchilik tomonidan e‘tirof etilgan talqini, ma‘nosi yo‘q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo‘llangan bo‘lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa og‘zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Masalan, golland tilshunoslari T.A. van Deyk va V.Kinchlar “keyingi yillarda bir qator gumanitar va ijtimoiy fanlarda bog‘liq nutq yoki diskursni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortganligini ta‘kidlar ekan, “diskurs”ni “bog‘li nutq”ning sinonimi sifatida qo‘llaydi [2.153-211 b]. Bog‘li nutq deganda, albatta, matn tushuniladi, ko‘rinadiki, “matn” va “diskurs” terminlari teng ma‘noli so‘zlar sifatida ishlatilgan. “Matn” va “diskurs” terminlarini bir-biridan farqli tushunchalar ifodasi uchun qo‘llash ham keng tarqalganligini kuzatish mumkin.

Tadqiqotchilar fransuz filologiyasida “diskurs” termini bir-biridan farqli to’rt xil ma’noda qo’llanishini aytadilar [3.143-144 b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

A.I.Gorshkov alohida ko’rsatib o’tganidek, lingvistik adabiyotlarda “diskurs” terminining qat’iy bir ma’nosi yo’q, u ifodalaydigan hodisalar diapazoni juda keng, ya’ni “matnning qismi”dan yaxlit “nutq”qacha bo’lgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so’zning ma’nosi fransuzcha discourse - “nutq”, “so’zlash” demakdir [4.39 b]. Uning qayd etishicha, “diskurs” so’zi “matnning qismi” ma’nosida termin bo’la oladi, ammo u matn muammosi turlicha nuqtai nazarlardan turib tadqiq etilgan juda ko’p lingvistik adabiyotlarda “frazadan katta birlik”, “murakkab sintaktik butunlik”, “matn komponenti”, “registr”, “jumla”, “prozaik strofa”, “sintaktik kompleks”, “monologik jumla”, “kommunikativ blok” kabilar bilan sinonim bo’lar ekan, “diskurs” terminiga ehtiyoj yo’qligini ta’kidlaydi.

Diskursni tadqiq qilish jarayonida 2 omil muhim hisoblanadi: diskursning tarkibiy qismi va uning tinglovchiga qay darajada tushunariligi (yani tinglovchi nutq jarayonida foydalanilayotgan termin yoki frazalarni anglash jarayoni bilan bog’liq). Bundan tashqari, yana bir muhim omil bu, nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan ayni matndir. Diskurs boshqa til birliklari singari aynan bir tilga xos bo’lgan xarakter xususiyatlariga ega bo’ladi.

Tabiiyki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unurning ishtiroki majburiydir, ya’ni so’zlovchi (yozuvchi) - axborot (matn) - tinglovchi (o’quvchi). To’g’ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot a’zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g’ayrilisyoniy vositalarning ham o’rni benihoya muhim, hatto ko’pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasisiz muloqot jarayoni voqe bo’la olmaydi.

Tilshunoslik ayni kommunikatsiya jarayonida ikki tomon (so’zlovchi, tinglovchi) o’rtaslagi “berish-olish”ning asosiy predmeti bo’lgan axborotning lisoniy ifodalanishi va anglanishi masalasiga mutlaqo tabiiy ravishda birinchi darajali diqqatni qaratdi. Zotan, har qanday kommunikatsiyaning pirovard va bosh maqsadi ayni shu axborotning “harakati”dir, bu “harakat” esa til vositasida bo’ladi. Shuning uchun ham tilshunoslik xuddi shu “harakatdagi axborot”ning asosiy va yirik birligini izladi, natijada gapni ana shunday yirik birlik sifatida uzoq davrlar e’tirof etib keldi.

Diskurs tushunchasini fanga olib kirgan tilshunos Emil Benvenist bu termin so’zlovchining nutq jarayonini ifodalashini takidlagan. Uning talqinicha diskurs aynan nutq faoliyatida hosil bo’ladigan va so’zlovchining bilim va ko’nikmalarini ifodalashini shuningdek, uning jamiyatdagi o’rni hayotiy pozitsiyasidan kelib chiqqan holda shakllanishi mumkinligini e’tirof etgan (Benvenist 1974). O’z qarashlaridan kelib chiqqan holda tilshunos, diskursni tahlil qilish jarayonida uning funksional xususiyatlarini inobatga olgan holda yondoshishni maqul ko’radi.

Tilshunoslikka 1952 - yilda Z. Xorrison tomonidan kiritilgan diskursiv tahlil tushunchasi, tahlil qilish jarayonida matndagi nafaqat fonetik yoki sintaktik xususiyatlarni balki madaniy me’ros, qadriyatlarining ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan. Tahlil jarayonida esa diskursning tuzilishi ham alohida ahamiyatga ega ekanini ham aytib o’tgan.

Keyinchalik aynan XX asrning 50-yillarida diskurs termini bevosita matn lingvistikasi bilan aloqador ekanligi ko’plab tilshunoslar tomonidan ta’kidlanadi. Tilshunoslikdagi bu ta’kidlar natijasida, diskurs va matnning ayrim farqli jihatlari ko’zga tashlanib boradi. Jumladan, matn – nomoddiy tuzilishga ega bo’lgan, ayni bir uslubdagi qoliplangan konstruksiya bo’lsa, diskurs – nutq jarayonida sodir bo’lib, inson ongida voqelanadigan o’zgarishlarni ekstralingvistik faktorlar bilan bog’liqligini o’rganadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Diskursiv tahlilning namoyondalaridan yana biri gollandiyalik tilshunos T.A. van Deyk ham bu borada fanga o’zining bir qancha mulohazalarini taklif etgan. Van Deykning talqinicha diskursiv tahlil 2 asosiy bosqichni qamrab oladi.

- Tahlil qilish jarayoni matnning strukturaviy xususiyatlarini, ya’ni fonetikadan toki sintaktikgacha bo’lgan bosqichni qamrab olishi kerak

TILSHUNOSLIK

- Kontekst tahlil. Diskursiv tahlilning muhim jihati shundan iboratki, matnning strukturaviy xususiyati uning asosiy xarakter jihatlarini ochib beradi.

Fransuz tilshunosi Elizabet Le diskursiv tahlilni 3 bosqichda ko'rib chiqishni taklif etadi.

1. Tilning ifodalanish jihatiga ko'ra
2. Jamiyatdagi qarashlarni shakllantirishiga ko'ra
3. Ijtimoiy guruhlar va kishilar o'rtasidagi aloqa xususiyatlariga ko'ra

Kognitiv tahlilda, olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy strukturalarning tildagi ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi. Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarini bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy-ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. "... avvalo, narsa jonli mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyati, qirrasini, tomoni aniqlanadi, natijada xususiyat, dalil, hodisa to'planadi, saralanadi; ... aqliy dialektik tahlil usuliga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi" [1.50 b]. Ana shu aqliy tahlilni (mantiqiy-ruhiy harakatdagi faoliyat) amalga oshirishning bir necha bosqichlari qator manbalarda sanab o'tilgan. Ularda berilishicha aqliy tahlilga qaratilgan faoliyatda dastlab ma'lum bir obyekt boshqa obyektlar qatoridan ajratib olinadi. Bunda albatta uning farqlovchi belgilari e'tiborga olinadi. Farqlovchi belgilar asosida boshqa obyekt bilan qiyoslash harakati amalga oshirilib, xotirada shu obyektga oid hissiy ramz shakllantiriladi. Bu ramzning tildagi boshqa ramzlar bilan o'xshash tomonlari qidiriladi. Eng so'nggi bosqichda esa voqelikning bilishdagi muhim bosqichi umumlashtirish amalga oshiriladi. Bu faoliyatning barchasi obyekt haqida tushuncha shakllanishiga xizmat qiladi. Mantiqiy faoliyat natijasi bo'lgan tushuncha obraz va lisoniy ma'no bilan umumlashib kognitiv lingvistika tarmoqlarida asosiy figura sifatida o'rganilayotgan konseptning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgandek, diskursiv tahlilni 3 asosiy bosqichga bo'lingan holda ko'rib chiqishda aynan qaysi omil muhimligi, yoki aynan qay biri kamroq ahamiyatli ekanligini aytish qiyin. Chunki ular o'rtasida bir birini inkor etuvchi sezilarli farqlar ko'zga tashlanmaydi. Ta'kidlash kerakki, diskursning kognitiv jihatdan tadqiq qilish jarayoni izlanuvchilardan o'z tadqiqotlarini turli fan sohalarini qamragan holda olib borilishini talab qiladi. Chunki, diskurs tushunchasi faqat tilshunoslik sohasi bilangina cheklanib qolmay fanlararo bog'liqlik kasb etadi va aytish kerakki, diskursiv tahlil o'z o'rnida semiotika, etnografiya, psixologiya, pragmalogiyat va boshqa bir qator fanlar bilan bevosita aloqador bo'lgan oraliq tushunchadir. Lekin aytish kerakki yuqorida keltirilgan fanlar ichida diskursning tahlili bilan bog'liq izlanishlarning aksariyati aynan tilshunoslik sohasiga aloqador. T.A van Deykning talqinicha, diskursning kognitiv tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlar izlanuvchining tanlagan metodi, fan sohasi, o'zining individualligi bilan bir biridan farq qiladi. T.A van Deyk kognitiv diskursiv tahlilni ikki bosqichda ko'rib chiqadi. Ya'ni, *matn tahlili* bu o'z ichiga matnning fonetik, orfografik tuzilishi tadqiqini shuningdek, morfologik jihatlarini, gaplarning sintaktik xususiyatlarini, semantik va leksik ma'no anglatgan birliklarning o'rnini bosqichma-bosqich tadqiq qiladi. Ikkinchi bosqich *kontekst tahlil* bo'lib, bunda hodisa, vaqt, makon, zamon, qatnashchilar, ularning kognitiv xususiyatlari ijtimoiy munosabatlari tadqiq qilinadi.

Diskursning umumiy ko'rinishi haqida ma'lumotni shakllantirish uchun og'ma, bo'rttirilgan shriftlardan yoki turli shaklli va rangli harflardan foydalaniladi. Bu holat aynan bir matn haqida boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Bunday ko'rinishlarni ko'proq maqolalar, gazeta e'lonlari, reklama bannerlarida ko'rishimiz mumkin. Sintaktik strukturalarning bir qancha o'ziga xos konstruksiyalari bor. T.A. van Deyk tanlangan matndagi noanaviy sintaktik konstruksiyani tahlil qilishni taklif qiladi. Ya'ni ko'pgina yevropa tillarida artikl+ot (article+noun) ananaviy ko'rinish bo'lib gramatik qoidalar asosida belgilangan bo'lganligi uchun bu holat tahlilga tegishli emasligini aytadi [2.153-211 b].

Diskursning leksik semantik tahlilida matnda foydalanilgan leksik birliklarning mohiyatini ochib berish muhim hisoblanadi. Bu bosqichda diskursda ifodalanayotgan voqea hodisaning ahamiyatini yoki ishtirokchining xarakter xususiyatlarini ifodalayotgan til birliklarini ko'rib chiqish talab etiladi. Masalan, ijobiy shaxsiy xususiyatlarni ochib berishda balandparvoz so'zlardan (positive word meaning), salbiy ma'noni ifodalashda esa salbiy bo'yoqdor so'zlardan (negative word meaning) foydalaniladi. T.A. van Deyk yana shuni ta'kidlaydiki, har qanday matnning asosiy tarkibiy qismini til ifoda vositalari tashkil etadi. Aynan ifoda vositalari matnning qanchalar ishonchli ekanini, o'quvchi uchun dolzarbligini ko'rsatuvchi asos bo'lib xizmat qiladi [2.153-211 b].

Diskursiv tahlil jarayonida faqatgina matnning strukturaviy xususiyatlariga emas, balki unga umumiy jihatdan yondoshish talab etiladi. Kontekst tahlilini bir nechta bosqichda ko'rib chiqish mumkin. Jumladan, vaziyat (setting), vaqt (time), makon (location), hodisa/harakat (event/action), ishtirokchi (participants). Yuqoridagi bosqichlar muhim hisoblansada, yanada chuqurroq yondoshuv esa quyidagi kategoriyalarni ham ko'rib chiqishni talab etadi. Ya'ni, faoliyat doirasi (domain), diskurs ishtirokchilarining roli (roles), ishtirokchilarning ijtimoiy munosabatlari (social relations).

Faoliyat doirasini ko'rib chiqadigon bo'lsak, bunda muloqotga kirishayotgan tomonlar aynan qaysi sohaga aloqador ekanliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, siyosiy sohada ish yurituvchi parlament a'zolarining suhbatlari bevosita shu sohaga aloqador terminlar, frazalar, atamalardan tashkil topgan bo'ladi (siyosiy diskurs), yoki o'qituvchilarning faoliyat doirasi bevosita ta'lim, maorif sohasiga tegishli bo'lgan iboralardan iborat bo'ladi (pedagogik diskurs). Bundan ko'rinib turibdiki, har bir soha vakili o'z kasbiy faoliyati doirasida suxbatga kirishadi. Muloqotga kirishuvchilar uchun umumiy bo'lgan kategoriya ham mavjud bo'lib, umumiy (public sphere) va xususiy (private sphere) bosqichlarni o'z ichiga oladi [2.153-211b]. Kontekst tahlil faqatgini ishtirokchilarning muloqotdagi roli, ularning ijtimoiy munosabatlari, yoki ishtirokchilar qaysi sohada faoliyat yuritishidan farqli ravishda ularning kognitiv xarakter xususiyatlariga ham ahamiyat beradi. Muloqot ishtirokchilarining ayni shu jihati ya'ni ularning maqsadi, fikri, e'tiqodi diskursning konteks tahlilida muhim hisoblanadi. Agar aynan shu jihatlar e'tiborsiz qoldirilsa, muloqotning nima maqsadda amalga oshirilgani mavhumligicha qoladi. Van Deykning talqinicha, muloqot ishtirokchilarining xarakter xususiyatlarini ochib berishda asosiy vazifani ulardagi ijtimoiy qarashlar, bilim-malaka va ko'nikmalar bajaradi.

Diskursning kognitiv tahlilida konseptning ahamiyati katta. Konsept o'zida ham ma'daniy ham kognitiv omillarni birlashtiradi. Kognitiv jihatdan konsept o'zida inson ongidagi barcha mental axborotlarni namoyon qiladi va bu axborotlar bevosita madaniy me'ros, milliy g'urur, milliy ong vositasida shakllanadi. Konseptning xarakter xususiyatlarini ochib berishda kontekstning ahamiyati katta. Aynan matnda konseptni ifodalashda til birliklarining o'rni beqiyos.

Sommerset Moemning "Luiza" hikoyasida faqat o'zini o'ylaydigan inson tasvirlangan. Aynan shu hikoya yordamida biz *selfish* (*xudbin*) konseptini tahlilini ko'rib chiqishimiz mumkin. O'zbek tilida hamda Ingliz tilida bu so'z salbiy xarakter kasb etadi. Yuqoridagi so'zning Ingliz tilidagi izohiga nazar solsak: 1) holding one's self interest as standart for decision making, 2) to put one's interest and benefit on first place and to think only about himself or herself. *Selfish* so'zini kognitiv tahlil qilish jarayonida yana boshqa ko'plab ma'nodoshlarini uchratishimiz mumkin: *egoistic, greedy, miserly, hoggish, mean, narrow, stingy, mercenary, egocentric, ungenerous, prejudiced*. Hikoyaning bosh qahramoni Luiza bolaligida qizilchaga chalinib yuragi nimjon bo'lib qolgan va shu sababli ota-onasi uni yer-u ko'kka ishonmasdi. Uni har qanday og'ir yumushdan asrashardi. Luizaning turmush tarzi, atrofdagilarga va o'ziga bo'lgan munosabatida *xudbinligi* yaqqol namoyon bo'ladi. *"I knew Luise before she married. She was then a frail, delicate girl with large and melancholy eyes. Her father and mother adored and worshipped her, for some illness, scarlet feveri think, had a left her with a weak heart and she had to take the greatest care of herself. I had noticed that if the party was amusing she could dance till five in the morning, but if it was dull she felt very poorly and Tom had to take her home early. On one occosiation seeing her walk eight miles on an expedition that she especially wanted to make, I remarked Tom that she was stronger than one would have thought. He told her that I had remarked on her endurance "I shall pay for it tomorrow I shall be at death's door" she said to me"*. Luizaning *xudbinligi* uning har bir harakatidan sezilib turardi faqat bu jarayonda u o'zini shunday kamtar va ojiza tutardiki, bevosita atrofdagilarning rahmini keltirardi: **lifestyle:** *she was quite lost witout a man to take care of her, and she did not know how with her delicate health she was going to bring up her dear Iris;* **behavior:** *for the next two or three years Luise managed in spite of her weak herat, to go beautifully dressed to all the most lively parties, to gamble very heavily, to dance and even to flirt with tall slim young man;* **character:** *she disliked me and I knew that behind my back she seldom lost the opportunity of saying a disagreeable thing about me. she had too much delicacy ever to make direct statement but with a hint and a sigh and a little gesture of her beautiful hands she was able to make her meaning plan;* **speech:** *I shan't live to trouble you long. It can't be very long now,*

TILSHUNOSLIK

I'll try not to be troublesome, you always speak as though you grudged me the few years that I can expect to live; position: in order to distract her mind she turned her villa at Monte Carlo into a hospital for convalescent officers. Her friends told her that she would never survive the strain. She was lunching at a restaurant with a tall and very handsome young Frenchman. She explained that she was there on business connected with the hospital. She told me that the officers were very charming to her. They how delicate she was and they wouldn't let her do a single thing. Hikoyani o'qish jarayonida Luizaning xudbin, faqat o'zini o'ylaydigan inson bo'lib qolishida bevosita uning atrofdagilar sababchi ekanini ko'ramiz. U shunchalar xudbinki, xattoki o'ziga g'amxo'rlik qilayotgan ikkinchi turmush o'rtog'i Jorjning ayrim xatti-harakatlari uning g'ashiga tegardi. Jorj uning birinchi eridek metin irodaga ega emasdi u Luizaning o'zini tutishidan charchagandi. Buni qarangi Luizaning baxtiga urush boshlandi va Jorj harbiy hizmatga qaytadi va uch oydan so'ng vafot etadi. Hasta yurak bilan Luiza ikkinchi judolikka qanday chidagan bo'lishi mumkin? Biror bir tushuncha haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun badiiy diskursning ahamiyati katta. Yuqoridagi hikoyada til ifoda vositalarining inson xarakterini tasvirlashdagi va emotsional holatini ochib berishdagi potensial imkoniyatlarini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Badiiy diskursni tahlil qilishda tilshunoslik fani manfaatdor bo'ladigan boshqa bir jihati bor va uni ikki yo'nalishga ajratib o'rganishga to'g'ri keladi. Birinchidan, badiiy asar matnidan tilni sinxronik va diaxronik yo'nalishda o'rganishda, tilshunoslikning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda uning ma'lum darajadagi yoki hozirgi paytdagi ahvolini, taraqqiyot qonunlarini o'rganishda, turli kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda material sifatida foydalaniladi ikkinchidan, badiiy asar materialidan tilda yuz berayotgan sifat o'zgarishlari, ya'ni ma'no taraqqiyotini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Bunda tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, tildagi barcha birliklar qamrab olinadi va ular alohida bir prizmadan-stilistik prizmadan o'tkaziladi. M.H.Kojina tabiri bilan aytganda bu tekshirish til birliklari ichiga vertikal kirib boradi. Bu tadqiqotlarda til vositalarining o'z birlamchi ma'nolari emas, balki matniy, nutqdagi qo'shimcha ma'nolari ularning bajargan vazifalari va bu bajargan vazifalarga qarab uslubiy chegaralanishlari o'rganiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Сафаров Ш . Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор 2006. -41-46 б (Сафаров Ш. Когнитивная лингвистика. - Джиза: Сангзор)
2. Дейк Ван Т.А ,Кинч В Стратегии понимание связанного текста / Новое в зарубежной лингвистике.Вип.23.-М.: Изд-во Прогресс , Когнитивный аспект языка 1988. 153-211 с. (Dyck Van T.A., Kinch In Strategies for Understanding Aloqador matn Chet tilshunosligida yangilik.)
3. Хованская З.И. Анализ литературного произведение в современной французской филологии. – М.:Высшая школа, 1980. -143-144 с (Xovanskaya Z.I. Zamonaviy fransuz filologiyasida adabiy asar tahlili. Oliy maktab)
4. Миловидов В.А. Текст, контекст, интертекст: Введение в проблематику сравнительного литературоведение. -Твер: ТвГУ, 1998.-39 с (Milovidov V.A. Matn, kontekst, intertekst: Qiyosiy adabiyot muammolariga kirish)

(Taqrizchi: D.Yuldasheva – Filologiya fanlari nomzodi dotsent)